

## BEDA O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

*Umarova Sobirabonu Ablazjon qizi*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*O'rishaliyev Nazokatoy Ikromjon qizi*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*Erkinova Muattaroy Sherzodbek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida chorva mollarini sifatli yem xashak bilan taminlash maqsadida qishloq xo'jalik yerlaridan katta maydonlar ajratilmoqda. Chorva mollari uchun eng yaxshi oqsilbop yem xashaklardan biri bu beda o'simligi hisoblanadi beda yilda 3-4 marta o'sib rivojlanadi. Bu esa bir tomonda chorva mollari uchun foydali yem xashak bo'lsa ikkinchi tomonda yerning unumdorligini yaxshilab beradi chunki beda o'simligi o'zida azot to'plash xususiyatiga ega. Ushbu maqolamizda beda o'simligini yetishtirish texnologiyasi va o'ziga zarur bo'lgan o'g'itlarini bilib olasiz.

**Kalit so'zlar:** beda o'simligi, ko'p yillik o't, harorat, , yetishtirish texnologiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaliklarida bezarar o'gitlardan foydalanish, sifatli maxsulotlar yetishtirish kabi rejalar ko'zda tutilgan. O'zbekistonda chorva mollarinini yetishtirishda albatda ozuqbop va oqsilga boy bo'lgan yem xashaklar zarur. Chorva mollari uchun eng ozuqbop yem xashaklardan biri bu beda o'simligi xisoblanadi.

Beda (*Medicago sativa* L) – dukkakdoshlarga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simlik, asosiy yem-hashak ekin. 100ga yaqin turi bor. O'rta Osiyoda ko'k beda turi keng tarqalgan. O'rta Osiyoda 5-7 ming yil avval ekib kelingan. Vatani Eron, taxminan 2-2.5 ming yil ilgari Yunoniston, qadimgi Rimdan olib kelingan. Poyasi sershox, bo'yi 70-150 sm, tup xosil qiladi. Beda bir va ko'p yillik o'tlar, ba'zan bargi uch bargchali chala butalar hisoblanadi. O'zbekistonda 8ta turi o'sadi. Ildizi o'q ildizli, yaxshi rivojlangan, sershox tuproqqa 2metrdan ortiq chuqurlikka kirib boradi. Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo bedaning kelib chiqish markazlaridan biri hisoblanadi. Beda har o'rimdan oldin 1-3 marta sug'oriladi. (4)

Beda - subtropik o'simlik bo'lib, xalq orasida "Om-xashak malikasi" nomi bilan mashhur. U yuqori darajadagi xom protein, [ikkilamchi metabolitlar](#), shuningdek, makro va mikro minerallarni o'z ichiga olgan yuqori ozuqaviy profilga ega bo'lib, uni eng yaxshi ozuqalardan biriga aylantiradi. dunyodagi em-xashaklar.(1)

Yem-xashak ishlab chiqarishni intensivlashtirish va biologizatsiya qilishda yetishtirish texnologiyasi va turli o'simlik formasiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bunda ko'p yillik dukkaklilarning intensiv turlari va navlariga, birinchi navbatda, bedaqa alohida e'tibor qaratilmoqda.(2) Beda, shuningdek, juda to'yimli bo'lishidan tashqari, issiq va sovuq iqlimga juda mos keladi. Beda meliorativ o'simlik hamdir, chunki beda ekilgan yerlarda tuzlarning miqdori kamayadi, bu beda qalin ekib tuproq yuzasidan bug'lash ancha kamayishiga, tuzning bir qismi hosil bilan ketishiga, beda sugorilganda tuzlarning yuvilishiga va bedaning ildizi chuqur qatlamlardagi suvlardan foydalanganligi tufayli sizot suvlar yuqoriga kotarilmasligiga bog'liqdir. Ilmiy Tadqiqot institute ma'lumotiga bo'yicha, bedadan bo'shagan yerlarga g'o'za ekilsa, vilt kasalligi bilan kasallanadi. Sug'oriladigan madaniy yaylovlar barpo etishda ham bedaning ahamoyati kattadir, chunki beda har xil o't aralashmalarga, albatta qo'shiladi. Bedaning hosildorligi tuproq-iqlim sharoitiga, yetishtirish texnologiyasiga bog'liqdir.

Kelib chiqishi va tarqalishi. Beda qadimdan ekib kelingan va keng tarqalgan o'simlik turkumiga kiradi. Ilk bor beda eramizdan 5ming yil ilgari O'rta Osiyoda va Kavkazda ekilgan. Bu mintaqalarda 2-2,5 ming yil ilgari Xitoy, Eron vz SHimoliy Afrikaga tarqalgan. Bedaning vatano Osiyo mintaqasi hisoblanib hozirgi vaqtda yer yuzida keng tarqalgan holda O'rtacha 30mln gektar yerga ekiladi. O'zbekistonda 2015-yilda bedaning ekin maydoni 85ming gektarni tashkil qilgan. Sistematikasi: Beda dukkaklilar (Fabaceae)oilasiga Medicago turkumiga mansub. Bu avlod yer yuzida tarqalgan madaniy va 100ga yaqin yovvoyi turlari kiradi. Eng ko'p roq ekiladigan turlari: ko'k beda- *M sativa*, sariq beda- *M falcata* L. duragay beda- *Medica* L.

Namlikka talabi. Beda namsevar o'simlik urug'ini bo'rtishi uchun 100- 120% suv sarflaydi. Tuproqning namligi dala nam sig'imiga nisbatan 70-75% bo'lishi kerak. Bir gram quruq modda xosil qilish uchun beda 700-800 gram suv sarflaydi. O'rtacha bedaning transpiratsiya koeffitsiyenti 700-900 birlikka teng. Ildiz yaxshi rivojlanganligi uchun beda tuproqning chuqur qatlamidagi suvni o'zlashtira oladi, kunning issiq paytlarida bir qism barglari to'kiladi, o'sishdan to'xtaydi, biroq yog'ingarchilik boshlanganda yoki sugorilganda o'sish yan adavom etadi. Shuning uchun beda lalmi yerlarda ham ekiladi. Yorug'likka talabi. Beda yorug'sevar uzun kun o'simligi, yorug'lik davri 16 17 soat davom etganda yaxshi rivojlanadi. Beda qoplovchi o'simliklar bilan ekilsa, sekin o'sadi va sust rivojlanadi. Ozuqaga talabi. Beda tuproqdan ko'p oziq o'zlashtiradi chunki u ser hosil o'simlikdir. Bir tonna pichan yetishtirish uchun beda 6 kg fosfor, 17-20kg kaliy va ancha kalsiy o'zlashtiradi. Tuproqqa talabi. Beda unumdor, govak, madaniylashtirilgan sho'rlanmagan, botqoqlanmagan va suvlari chuqur joylashgan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Bedani o'sish va rivojlanish davriga qarab sho'rga chidamliligi o'zgaradi: maysalanish davri 0,2%,

shonalash davrida 0,6%, nirinchi o'ramdan kegin 0,66% dan ortiq tuzlarga bardosh bera oladi. Beda ekilgan joyga 5-6 yildan kegin ekin ekiladi.

Bedaning o'sish va rivojlanishi. Qulay sharoitda urug' ekilganda 5-6 kun kegin unib chiqadi. Maysasi 2ta urug' bargi shaklida yer yuzida ko'rinadi. Maysalari juda mayda bo'lib, qatqaloqqa judor bo'lsa nobud bo'ladi. Maysalar ko'ringandan 3-4 kun o'tkach, birinchi oddoy chin bargi rivojlanadi. Songra 12-15kun o'tgach birinchi murakkab, toq patsimon, uchtalik chin barg ruvojladi. Navbatdagi burglar har 4-5kunda paydo bo'laveradi. O'simlikda 15-20ta chin barg rivojlanganda shonalash davri boshlanadi, bu maysalanishdan 40-60kun o'tgandan kegin kuzatiladi. Shonalashdan 10-2-kun o'tgach, gullash davri boshlanadi. Beda pastdan yuqoriga, markazdan atrofga qarab gullaydi. Bahorda ekilgan beda 90-100kunda gullatdi, 140kunda tola yetiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Suwignyo B., Rini E. A., Helmiyati S. Indoneziyadagi tropik beda profili: sharh // Saudiya Biologiya fanlari jurnali. – 2023. – T. 30. – Yo'q. 1. – B. 103504.
2. Ussipbayev N. B., Sadvakassov S. S. Alfa etishtirishni intensivlashtirish va biologizatsiya qilish imkoniyatlari // Biosciences Biotechnology Research Asia. – 2016. – T. 13. – Yo'q. 2. – 873-878-betlar.
3. Bahodir o'gli I. B., Ilhomjon o'gli B. S. BEDA OSIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 690-695.
4. Turg'unboyeva N. BEDA O'SIMLIGINI YETISHTIRISH //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 62-65.
5. Ollaberganova N. I. et al. BEDA O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 4. – №. 7. – C. 18-20.
6. Odiljon O'g'li T. O., Ilhomjon o'g'li J. D. AZOT YIG'UVCHI BAKTERIYALAR. – 2023.